

FIRAVIN VA FARAON BEDANA ZOTLARI QONINING GEMATOLOGIK VA KUNLIK O'SISH KO'RSATGICHLARINING BEDANALAR ZOTIGA VA YOSHIGA BOG'LIQLIGI

Saidxonova Y H., Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
magistranti.

Suyunqulova Sh S. ,Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.
magistrant.

Kalit so'zlar: natriy, kaltsiy, fosfor, metionin va tsistin, fiziologik-gematalogik ko'rsatgichlar.

Hozirgi kunda dunyoda parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning aniq tendentsiyasi aniqlandi. Bu kabi qiziqish yo'nalishlarida olingan mahsulotlarning sifati, balki ko'payishning nisbatan qisqa muddati bilan ham belgilanadi. Qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan parrandachilik parrandalarni ko'paytirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonlarni ta'minlovchi yaxlit tizim sifatida yaratilgan. Parrandachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimotini ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Bugungi kunga qadar ko'plab mamlakatlarda parrandachilik kabi bedanachilik sanoatda ijobiy o'sish tendentsiyasi kuzatildi. Bedananing boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlariga nisbatan bir qator o'ziga xos iqtisodiy va mahsuldorlik afzalliklari – tana haroratining yuqoriligi, organizmda metabolizmning intensivligi, kichik o'lchami, tezligi, reproduktiv mahsuldorligi yuqori ekanligi.

Hozirgi kunga qadar bedanalarning turli xildagi ko'plab zotlari mahaliylashtirilgan hamda ko'plab fiziologik-gematalogik ko'rsatgichlarini aniqlash bo'yicha X.Tekk, V.Neps, R.Laur (1989) E.Petroviska (1995) A.I.Raxmanov (2004), Ashraful Kobir (2013), B.A.Bediyev (2016), K.M.Sulaiman, Sh.H.Hussen (2017), Muhammad Focak (2017), P.E.Rahmatullayev (2018) hamda ko'plab boshqa tadqiqotchilar bedanalarning turli xil zotlari o'rtasida tuxumlarninig mahsuldorligiga ta'siri berilayotgan ozuqalariga bog'likligi, hamda bedana zotlaridagi urg'ochi va nar bedanalarning gematalogik ko'rsatgichlarining tasnifi kabi ko'plab ishlarni olib borishgan [1].

Yuqorida keltirilib o'tilgan mualliflarning tadqiqot ishlarida turli bedana xususan ingliz oq zoti, faraon, estonoya kabi zotlarning gematalogik-biokimyoviy ko'rsatgichlarining ularni turli yosh oralig'idagi o'zgarish nuqtalari, qon zardobidagi oqsil miqdori barcha zotlar uchun dastlabki 30 kunlik yoshda ingliz oq bedanalarining qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori 10 kunlik bedanalarga qaraganda 11,24% ga yuqori bo'lganligi faraon zoti uchun 11.55% qon zardobida umumiy protein miqdori sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga bedanalarga berilayotgan ozuqalarining miqdori hamda sifati jihatidan aynan qaysi bir zot uchun eng afzalliklari aniqlab borilgan. Xususan faraon zotining dastlabki bir haftalikdan toki to'rt haftalikgacha kombikorim tarikida quyidagilar 100 g yem aralashmasida metabolik energiya miqdori 299 Kkal bo'lishi va xom oqsil - 22,5, natriy - 0,23, kaltsiy - 0,78, fosfor - 0,72, metionin va tsistin - 0,94 ni tashkil etadi [3].

Yana bir qancha xorijiy adabiyotlarga ko'ra bedanalarning dastlabki 5-10 kunlik yoshidan 35 kunligigacha har 5 kunda tana massasi o'lchanib borilib, qonidan 0,5ml miqdorda namunalari olindi. Umumiy gematologik tahlillar o'tkazilib boriladi.

Bedanalarning dastlabki davrdan boshlab biz ozuqadan necha gramdan 20 bosh bedanalar tomonidan istemol qilinganligining o'rtacha miqdori proporsional hisoblash orqali aniqlab olingan. Unga ko'ra 10-15 kun oralig'ida har bir firavin zotida berilayotgan ozuqaning yedirimliliigi 1,56 gr ga ko'tarilgan hamda faraon zotida esa 1,61 gr oshganligi va 20-25 kunlar oralig'ida esa firavin zotida ozuqasining istemol qilinishligi yana 1,56 gr oshdi, faraon zotida esa 2,06 gr oshgan, 30-35 kunlar oralig'ida firavin zotida ozuqaning istemol qilinishi 1,59 gr faraon zotida 1,64 gr ga oshganligi aniqlangan [4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1.A.I.Рахманов “Разведение домашних и экзотических перепелов” Москва «Аквариум» 2004.
2. 2.Y.H.Saidxonova, M.S.Kuziyev “Oq gigant va Faraon zotli bedanalar qonining gematologik va kunlik o'sish ko'rsatkichlarining zotiga va yoshiga bog'liqligi” Samarqand-2023 ‘Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya”.
3. Xayrullayeva L.M. Ochlikni neyroendokrin tartibga solish orqali semizlikni davolashda o'simlik birikmalaridan foydalanish. Xorazm Mamun Akademiyasi, 2023.-14 b
4. Rahmatullayev Y. Sh, Avliyoqulova M. B, Hakimova M. A, O'zbekiston respublikasining janubiy viloyatlari sharoitida maktab o'quvchilarining amaldagi ovqatlanishi va jismoniy taraqqiyoti. Xorazm Ma'mun Akademiyasi- 2023.
5. Avliyoqulova M.B, Rahmatullayev Y.Sh, “Qarshi shahri sharoitida maktab o'quvchilarining antropometrik ko'rsatkichlari” Ma'mun akademiyasi-2024.
6. Rakhmatullayev Y., Kurbanov A.Sh., Hazratova H.N. Physical Development of Rural and Urban School Children and its Comparative Characteristics. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vj1.25, Issue 4, 2021, Pages.7603-7608 Received 05 March 2021; Accepted 01 April 2021.
7. Hazratova H.N., Kurbanov Sh.K., Rahmatullayev Y.Sh., Buranova G.B. Physical Development of Primary Class Students. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. Vol:04 Issue:05. Sep-Oct. 2023 ISSN: 2660-4159. 330-331 p.